

YAPON TILSHUNOSLIGIDA KO'MAKCHI FE'LLAR ORQALI IFODALANUVCHI ASPEKT KATEGORIYASINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Egamova Kamola Akmal qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti stajyor-tadqiqotchisi

Annotatsiya. Fe'l kategoriyasi har qanday tilda zamon, holat va harakatning turli tomonlarini ifodalashda markaziy rol o'ynaydi. Shu jihatdan, aspekt kabi grammatik birliklar tilshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi. Aspekt va zamon orasidagi farq ba'zan nozik bo'lsa-da, ularni alohida tahlil qilish harakatning semantik ifodasini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Yapon tilida aspekt kategoriyasining grammatik birlik sifatida shakllanishi murakkab tarixiy jarayon bo'lib, unda ko'makchi fe'llar orqali semantik farqlanishlar bosqichma-bosqich grammatik tizimga ko'chgan. Ushbu maqolada XX asr boshlaridan boshlab yapon tilshunosligida aspekt tushunchasining shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Xususan, Takahashi, Kindaiichi, Suzuki, Yoshikava kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan qarashlar asosida yapon tilida aspektual shakllarning grammatik kategoriya sifatida shakllanish jarayoni yoritiladi. Tadqiqot natijalari yapon tilidagi fe'l sistemasi va grammatik tipologiyaning muhim xususiyatlarini anglashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: aspekt, ko'makchi fe'l, zamon, kategoriya, grammatik ma'no.

Аннотация. Глагольная категория играет центральную роль в выражении времени, состояния и различных аспектов действия в любом языке. В этом контексте грамматические категории, такие как аспект, имеют особое значение в лингвистике. Несмотря на то, что различие между аспектом и временем иногда бывает тонким, их отдельный анализ способствует более глубокому пониманию семантической природы действия.

Грамматическая категоризация аспекта в японском языке представляет собой сложный исторический процесс, в ходе которого семантические различия постепенно переходили в грамматическую систему посредством вспомогательных глаголов. В данной статье анализируются этапы формирования понятия аспекта в японском языкознании начиная с начала XX века. На основе трудов таких исследователей, как Такахаси, Киндайти, Судзуки и Ёсикава, освещается процесс становления аспектуальных форм как грамматической категории в японском языке. Результаты исследования представляют практическую ценность для понимания системы глагола и грамматической типологии японского языка.

Ключевые слова: вид, вспомогательный глагол, время, категория, грамматическое значение.

Abstract. The verb category plays a central role in expressing tense, state, and various aspects of action in any language. In this regard, grammatical categories such as aspect hold special significance in linguistics. Although the distinction between aspect and tense is sometimes subtle, analyzing them separately allows for a deeper understanding of the semantic nature of actions.

The grammatical formation of aspect as a category in the Japanese language is a complex historical process, during which semantic distinctions were gradually integrated into the grammatical system through auxiliary verbs. This article analyzes the stages of the development of the aspect concept in Japanese linguistics from the early 20th century onward. Based on the works of scholars such as Takahashi, Kindaichi, Suzuki, Yoshikawa, the article explores how aspectual forms evolved into a grammatical category within the Japanese verbal system. The findings contribute to a deeper understanding of Japanese verb morphology and its typological features.

Keywords: aspect, auxiliary verb, tense, category, grammatical meaning.

Kirish. Tilshunoslikda aspekt kategoriyasi harakat yoki holatning vaqt doirasidagi ichki tuzilishini ifodalovchi grammatik birlik sifatida talqin qilinadi. Komri aspektga quyidagicha ta’rif beradi: “Aspekt— vaziyatning ichki vaqtiy tarkibini turlicha kuzatish usuli”.¹ Demak, aspekt harakatning davomiyligi, yakunlanganligi yoki takrorlanuvchanligini anglatuvchi grammatik mexanizm sifatida qaraladi. Har bir aspekt, aslida, vaqt doirasida ro’y berayotgan harakatni turlicha tasvirlash usulidir.

Masalan, ingliz tilida mavjud bo‘lgan simple, progressive, va perfect aspektlari harakatning turli vaqtiy tomonlarini — statiklik, davomiylik, natijaviylik kabi xususiyatlarini — farqlash imkonini beradi.

Uning zamondan farqi ham shunda. Zamon va aspekt har ikkisi vaqt konsepti bilan uzviy aloqador bo‘lishiga qaramay, ularning vaqtga nisbatan grammatik bog‘liqligi va ifoda mexanizmlari o‘rtasida farqlar mavjud. “Zamon — bu deiktik kategoriya, ya’ni u voqealarni vaqt ichida joylashtiradi. Odatda bu hozirgi paytga nisbatan amalga oshadi, biroq ba’zida boshqa voqealarga nisbatan ham bo‘lishi mumkin. Aspekt esa voqeaning vaqtini boshqa bir vaqt nuqtasiga bog‘lash bilan shug‘ullanmaydi. U, aksincha, bitta voqeaning ichki vaqt tuzilmasi — ya’ni harakatning qanday kechganligi (davomiyligi, yakunlanganligi va h.k.) bilan shug‘ullanadi. Bu farqni quyidagicha ifodalash mumkin: aspekt — voqea ichidagi vaqt (situation-internal time), zamon — voqea tashqarisidagi vaqt (situation-external time)”.²

¹ Comrie B. Aspect: An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems. – Cambridge: Cambridge University Press, 1976. P 3.

² Comrie B. Aspect: An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems. – Cambridge: Cambridge University Press, 1976. P 5.

Mulohaza va natijalar. Yapon tilshunosligida XX asr boshlariga qadar aspekt kategoriyasi yaxlit grammatik tizim sifatida shakllanmagan bo‘lsa-da, u bilan bog‘liq ko‘plab shakl va tushunchalarga oid izlanishlar mavjud bo‘lgan. Bu davrga oid dastlabki yondashuvlar va ularning mazmuni filolog Takahashi Taro tomonidan 1987-yilda yozilgan 解説 日本語動詞のアスペクト研究小史 (“Izoh Yapon tilidagi fe‘llar aspekti tadqiqotining qisqa tarixi”) nomli sharhlovchi maqolada tahlil qilingan. Jumladan, Matsushita (1901) o‘zining 「日本俗語文典」 (“Yapon so‘zlashuv tili grammatikasi”) asarida ilk bor 現然態 (genzentai, ‘hozirgi holat’), 已然態 (kizen-tai, ‘allaqachon ro‘y bergan holat’), 将然態 (shōzen-tai, ‘kelajak holat’) kabi atamalarni ishlatgan bo‘lsa-da, bu shakllarni zamon kategoriyasi doirasida talqin qilgan va alohida aspekt sifatida ajratmagan. 1914-yilda chop etilgan 「標準日本文法」 (“Standart yapon grammatikasi”) asarida esa 已然態 (行っている) kabi shakllar zamon kategoriyasidan alohida ko‘rib chiqilgan va ularning ma’no xususiyatlari chuqurroq tahlil qilingan. Shuningdek, unda 完全動詞 (してしまう) — tugallanganlik, 予備態 (しておく) — tayyorgarlik, va 経験態 (してみる) — tajriba kabi shakllarga e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, bu birliklar yagona aspekt tizimi doirasida birlashtirilmagan.

Kasuga Seiji 1918-yildagi 「尋常小学国語読本の語法研究」 (“Boshlang‘ich maktab yapon tilidagi darsliklarning grammatikasi bo‘yicha tadqiqot”) asarida してしまう shaklini yakuniylik ma’nosida empirik jihatdan tahlil qilgan. Bu ishda ayrim aspektual birliklarga morfologik asoslangan yondashuvning ilk belgilarini ko‘rish mumkin.

Yana bir muhim izlanishlar Kobayashi Kojitsu tomonidan olib borilgan. U 1927-yilda 「国語国文法要義」 (“Milliy til va grammatika asoslari”) va 1941-yilda 「国語学の諸問題」 (“Milliy tilshunoslikning turli masalalari”) nomli asarlarida 動作態 (harakat holatlari) degan umumiy nom ostida uchta aspektual shaklni farqlaydi: 完了態 (してしまう) tugallanganlik shakli, 存在態 (てある、ておる、てをる) mavjudlik shakli, 継続態 (ておる、てをる) davomiylik shakli.

Biroq Kobayashi bu shakllarni “fe‘l kategoriyasi” sifatida emas, balki vaqtga oid qo‘shimchalar tizimida tahlil qilgan. Shu sababli, uni Sakamoto Kanae o‘zining 「現代日本語の表現と語法」 (“Zamonaviy yapon tilida ifoda va grammatika”) asarida tanqid qiladi. Sakamoto fe‘llar orqali ifodalangan holatlarda boshlanish, davomiylik va yakun kabi jarayon bosqichlari mavjudligini asoslab, aspektni mustaqil fe‘l kategoriyasi sifatida tan oladi va Kobayashining yondashuvini bir tomonlama deb hisoblaydi. “Kobayashi 動作態 (harakat holati) ga holat tuzilishini ifodalash uchun foydalaniladigan shakllardan biri sifatidagina qarab, uni oldingi so‘z turkumlari

bo'linishi bo'yicha 助動詞 (yordamchi so'z turkumlari)ga tenglashtirgan va atrofda faktlarga e'tibor qaratmagan"³ deya tanqid qiladi.

Miyata Ko o'zining 1948-yilda yozilgan 「日本語文法の輪郭」 (“Yapon tili grammatikasining umumiy qiyofasi”) ilmiy ishida シテ分詞+小動詞 grammatik birikmasi aspektini ifodalashini aytib, uni 様態 deb atadi. Unda u aspektni ma'nosiga qarab emas, shakliga qarab tahlil qildi. U morfologik tahlilga yondashgan holda ilmiy izlanish olib borgan bo'lsada, シテ分詞+小動詞 grammatik birikmasi ichidan aspektni ajratib ko'rsatmadi.

Takahashi Taro ana shu tadqiqotlarning tahlil natijalaridan kelib chiqib, XX asr yarmiga kelgachgina aspektga grammatik kategoriya sifatida qarala boshlanganini aytadi: “Yapon tilidagi fe'llarning aspektini o'rganishga morfologik yondashuvning kurtaklari Kasuga (1918) da ko'rinsa-da, uni Miyata (1948) dan boshlangan deb aytilish mumkin. Biroq bu faqatgina grammatik qo'llanmaning bir qismini tashkil etgan bo'lib, hali to'laqonli aspekt tadqiqoti emas edi.”⁴

Tilshunoslikda aspekt hodisasi ikki asosiy tur — leksik va grammatik aspekt sifatida tasniflanadi.

Leksik aspekt — bu fe'ling semantik xususiyatiga daxldor bo'lib, u fe'ling o'z ma'no doirasida harakatning vaqtga oid kechish jarayonini ifodalash xususiyatini bildiradi. Boshqacha aytganda, ba'zi fe'llar grammatik vositalarsiz ham harakatning boshlanishi, davomiyligi yoki yakunlanganligini bildiradi.

Masalan, o'zbek tilidagi “yaralamoq” fe'li odatda qisqa vaqt ichida sodir bo'ladigan va tugallangan harakatni anglatadi. “Yurmoq”, “o'qimoq” kabi fe'llar esa davomiy harakatni ifodalaydi. “Boshlamoq” fe'li esa harakatning boshlanish bosqichiga ishora qiladi.

Grammatik aspekt (yoki grammatik ma'no orqali ifodalanuvchi aspekt) fe'lga qo'shilgan grammatik vositalar orqali, masalan, qo'shimchalar, yordamchi fe'llar yoki boshqa grammatik birliklar yordamida ifodalanadigan aspekt bo'lib, harakatning boshlanishi, davomiyligi, yakunlanganligi kabi holatlar grammatik yo'l bilan ifodalanadi. Masalan, o'zbek tilida bu ko'pincha fe'l shakllari (masalan, “ketayotgan edi”, “boribdi”, “kelmoqchi”, “kelib turadi”) orqali ifodalanadi. Boshqa tillarda (masalan, rus tilida) bu hatto fe'ling morfologik shakllarida (vid — совершенный / несовершенный) aniq belgilab qo'yilgan bo'ladi.

Aspektning bu ikki turi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, fe'ling leksik aspekti u qanday grammatik aspektni qabul qila olishini belgilab beradi.

³ 高橋太郎 (1969) 「解説 日本語動詞のアスペクト研究小史」. 金田一春彦 (編) 『日本語動詞のアスペクト』. 東京 むぎ書房 P.337

⁴ 高橋太郎 (1969) 「解説 日本語動詞のアスペクト研究小史」. 金田一春彦 (編) 『日本語動詞のアスペクト』. 東京 むぎ書房 P.340

Shuningdek, leksik aspekt fe'ning distribution xususiyatlariga, ya'ni u qanday zamon-aspekt konstruktsiyalarida ishtirok etishiga bevosita ta'sir qiladi.⁵

Predikatning grammatik maqbulligi ko'pincha fe'ning lug'aviy ma'nosi bilan sintaktik konstruktsiya orasidagi semantik moslikka bog'liq bo'ladi.

Yapon tilida fe'ning leksik aspekti masalasi bilan turli tahlillar amalga oshirilgan. Shularning ichida Kindaiichining ishi ko'plab boshqa ilmiy ishlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kindaiichi o'zining 国語動詞の一分類 (“Yapon tilidagi fe'llarning bo'linishi”) nomli ilmiy ishida yapon tilidagi fe'llarni aspektual jihatdan 4 guruhga bo'ladi:

Birinchi guruh fe'llarini 状態動詞 (holat fe'llari) deb nomlaydi va ularni harakatdan ham ko'proq holatni bildiradi deya izohlaydi. Ular fe'ldan ko'ra sifat so'z turkumiga yaqinroq bo'lib, ularga ある(bor), できる(qila olmoq) fe'llari misol bo'la oladi.

Ikkinchi guruh fe'llari 継続動詞 (davomiy fe'llar) deb atalib, ma'lum muddat davomida sodir bo'lishi mumkin. Ularga よむ(o'qimoq), かく(yozmoq), はしる(yugurmoq) kabilar kirib, ularning soni nisbatan ko'p.

Uchinchi guruh fe'llari 瞬間動詞 (lahzalik fe'llar) deb nomlanib, ular bir zumda sodir bo'luvchi fe'llardir. Masalan, しぬ(vafot etmoq), つく(yoqilmoq).

To'rtinchi guruh fe'llari holatni anglatib kelishidan birinchi guruh fe'llariga o'xshaydi. Ular doimo ている shakli bilan birga qo'llanadi. Masalan, そびえている (yuksalmoq). Kindaiichi nom berish qiyin bo'lgani bois, ularni 第四種の動詞 (to'rtinchi guruh fe'llari) deb ataydi.

Kindaiichining 日本語動詞のテンスとアスペクト (“Yapon tili fe'llarining zamon va aspekti”) nomli ilmiy ishida aspekt turlarining har birini muayyan zamon shakllari bilan bog'lab, ularni qarama-qarshi emas, balki strukturaviy bog'langan parallel kategoriyalar sifatida ko'rsatadi. U aspektni 状態相アスペクト(holat aspekti) va 動作相アスペクト(harakat aspekti) ga bo'ladi.

Kindaychining fe'ning aspektual shakllarini keng tahlil qilishi, shuningdek, barcha fe'llarni aspektual nuqtai nazardan tasniflashga urinishi katta ahamiyatga ega bo'lib, natijada Kindaiichi asarlari shu asrning ikkinchi yarmida aspekt tadqiqotining boshlanishini belgilab berdi. Uning tahlillari asosida boshqa olimlar tomonidan aspekt kategoriyasi asta-sekin qayta ko'rib chiqilgan. Ammo bugungi kunda ham aspektga kelganda, Kindaichining ilmiy ishlari odatda birinchi bo'lib keltiriladi.

Yapon tilshunosi Suzuki Shigeyuki o'zining 1957-yildagi 「日本語の動詞のすがた (アスペクト)について——～スルの形と～シテイルの形」 (“Yapon tilidagi fe'llarning aspekti haqida: suru shakli va shite iru shaklining tahlili”) hamda

⁵ Chiaki Taoka. Aspect and argument structure in Japanese. A Thesis submitted to the University of Manchester for the degree of Doctor of Philosophy. P 16.

1958-yildagi 「日本語の動詞のとき(テンス)とすがた(アスペクト)~シタと~シテイタ」 (“Yapon tilidagi fe’llarning zamon va aspekt shakllari: shita va shite ita shakllari tahlili”) nomli tadqiqotlarida zamon (テンス) va aspekt (アスペクト) kategoriyalarining yapon tilidagi ifodalanish xususiyatlarini atroflicha tahlil qiladi.

Suzuki bu grammatik shakllarning semantik ma’nolarini aniqlovchi turli faktorlar mavjudligini ta’kidlab, ulardan biri sifatida “aspectual xarakter” (すがた的な性格) tushunchasini ilgari suradi. Unga ko’ra, fe’lning qanday aspektual shaklda qo’llanishi ko’p hollarda uning semantik-dinamik tabiatiga, ya’ni ichki xarakteristik xususiyatlariga bog’liq bo’ladi.

Mazkur yondashuv doirasida Suzuki yapon tilidagi fe’llarni ularning aspektual xarakteriga ko’ra quyidagi uch guruhga ajratadi⁶:

1) 動作性動詞 (harakat fe’llari). Bu turkumga kiruvchi fe’llar ma’lum vaqt oralig’ida amalga oshadigan faol harakatni bildiradi. Ular o’z o’rnida 2 ga bo’linadi: 継続動作性動詞 (davomiy harakat fe’llari) va 瞬間動作性動詞 (lahzalik harakat fe’llari).

2) 状態性動詞 (holat fe’llari). Ushbu fe’llar esa statik, o’zgarishsiz holatni ifodalaydi. Ular davomli yoki mavjudlikni ifodalovchi fe’llardir.

3) 中間的な動詞 (oraliq fe’llar) — bu kategoriya harakat va holat fe’llari orasidagi oraliq pozitsiyani egallaydi. Suzuki Shigeyuki, Kindaiichi tasnifidan farqli o’laroq, potensial qobiliyatni bildiruvchi fe’llar (可能動詞), sezgi organlari bilan bog’liq fe’llar (見える、聞こえる) hamda tana holatini bildiruvchi fe’llarni (痛む、寒気がする) holat fe’llari guruhiga emas, balki oraliq guruh fe’llariga kiritadi.

Takahashi Taroning 「すがたともくろみ」 (“Aspekt va niyat”) nomli ilmiy ishida aspekt — fe’l ifodalayotgan harakat jarayonining qaysi qismini fokus ostiga olishni bildiruvchi grammatik ma’no sifatida ta’riflanadi. U zamon va modal kabi kategoriyalar so’zning grammatik shakllari orqali ifodalanishini, aspekt esa yordamchi fe’llar orqali hosil bo’lishini ta’kidlaydi.⁷ Tilshunos olim aspekt yasalishi uchun している, してある, してしまう, しておく, してくる, していく kabi ko’makchi fe’llar qo’llanilishini ta’kidlab, ularning har birining qo’llanilish usullarini tahliliy asosda o’rganadi.

Yoshikava Taketokining 「現代日本語動詞のアスペクトの研究」 (“Zamonaviy yapon tili fe’llarining aspekti bo’yicha tadqiqot”, 1973) asari yapon tilshunosligida har bir yordamchi fe’lni aspekt nuqtai nazaridan batafsil tahlil qilgan muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Unda keltirilgan misollar ko’pligi va

⁶ 鈴木重幸 (1957) 日本語の動詞のすがた (アスペクト) について———スルの形と~シテイタの形. 金田一春彦 (編) 『日本語動詞のアスペクト』. 東京 むぎ書房 P.67

⁷ 高橋太郎 (1969) 「すがたともくろみ」. 金田一春彦 (編) 『日本語動詞のアスペクト』. 東京 むぎ書房 P.119

tahlilning chuqurligi tufayli bu asar keyingi ko'plab ilmiy ishlarda asosiy manbalardan biri sifatida qo'llanilgan.

Ular, asosan, aspekt masalasini o'rganish jarayonida ko'makchi fe'llarning semantik va grammatik funksiyalarini yoritishga alohida e'tibor berganlar. Bu kabi izlanishlarda ko'makchi fe'llar faqat grammatik qurilma elementi sifatida emas, balki til tizimidagi dinamik harakat ifodalovchi komponent sifatida ham o'rganiladi.

Ushbu yondashuv, shuningdek, ko'makchi fe'llarning faqat sintaktik birlik sifatida emas, balki morfosintaktik va semantik jihatdan ham tahlil qilinishini taqozo etadi. Ya'ni, ular faqat gap tuzilmasidagi "yordamchi" element bo'lib qolmay, balki ma'no yuklovchi va kontekstga mos keluvchi grammatik indikator sifatida ham o'rganiladi. Shu bois, ko'makchi fe'llar tahlilida ularning aspektual funksiyalari, zamon-shaxs munosabatlariga bog'liq holatlari, shuningdek, nutq uslubiga ta'siri kabi jihatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asrga kelib, yapon tilshunosligida ko'makchi fe'llarni mustaqil tahlil obyekti sifatida o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar sezilarli darajada faollashdi. Avvalgi davrlarda ko'makchi fe'llar, asosan, ularning umumiy grammatik xususiyatlari doirasida tahlil qilinardi. Biroq zamonaviy yondashuvlarda har bir ko'makchi fe'l alohida til birligi sifatida o'rganilmoqda. Tadqiqotchilar endilikda bu birliklarning faqat morfologik yoki sintaktik funksiyalarini emas, balki ularning semantik, funksional, kognitiv va pragmatik jihatlarini ham chuqur tahlil qilishga kirishganlar.

Bunday yondashuv ko'makchi fe'llarning til tizimidagi roli va ularning kommunikativ vazifalarini chuqurroq anglash imkonini bermoqda. Jumladan, semantik tahlillar orqali ko'makchi fe'llarning ma'no nozikliklari, turli kontekstlarda yuzaga keladigan semantik differensiasiyalari aniqlanmoqda. Funksional tahlillar esa bu birliklarning gap tuzilmasidagi rolini, ya'ni ular orqali ifodalanadigan grammatik kategoriya va harakatning aspektual jihatlarini yoritishga xizmat qilmoqda.

Kognitiv lingvistika doirasidagi izlanishlar ko'makchi fe'llarning inson tafakkuridagi konseptual tasavvurlarga bog'liqligini ochib berishga intilmoqda. Shu bilan birga, pragmatik yondashuvlar esa ularning nutqdagi maqsadlilik, kontekstga bog'liqlik, iltifotlilik darajasi, modal ohang singari nutqiy jihatlarini ifodalashdagi roli va samaradorligini aniqlashga yo'naltirilgan.

Shu tariqa, XXI asr yapon tilshunosligida ko'makchi fe'llarning o'rganilishi soddalashgan grammatik ko'rinishdan chuqur kognitiv-pragmatik tahlil bosqichiga o'tmoqda. Bu esa ularning tilshunoslikdagi mavqeini yanada mustahkamlamoqda va yapon tili grammatikasini yanada kengroq va chuqurroq o'rganish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Yapon tilidagi yordamchi fe'llarning shakllanishi va funksional rivojlanishi turli yondashuvlar asosida o'rganilgan. Semantik va pragmatik jihatdan bu jarayonni

Yamada Toshihiro⁸hamda Kondo Kaori⁹ izchil tahlil qilgan bo'lsa, kognitiv tilshunoslik doirasida Zhāng Yòuhuá¹⁰ tomonidan ko'makchi fe'llarning grammatikalashuv jarayoni o'rganilgan. Semantik va sintaktik nuqtai nazardan esa bu masalaga Masami Murata¹¹ va Sumida Tetsuro¹² tomonidan yondashilgan. Ko'makchi fe'llar tizimi umumiy lingvistik nuqtai nazardan I Jong Ku¹³ tomonidan tadqiq qilingan bo'lsa, pragmatik aspekt asosida Shi Youhi¹⁴ tomonidan tahlil etilgan. Dialektologik jihatdan, xususan Okinava Shuri shevasidagi yordamchi fe'llarning o'zgarishlari esa Toyama Nana¹⁵ dissertatsiyasida atroflicha yoritilgan.

Xulosa. Yapon tilidagi aspekt kategoriyasining ilmiy o'rganilishi, avvalo, morfologik yondashuvlar doirasida boshlangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan uning semantik, funksional va kognitiv jihatlari ham chuqur tahlil etila boshlandi. XX asr boshlarida Matsushita, Kasuga, Kobayashi, Miyata kabi olimlarning izlanishlari asosida shakllangan dastlabki nazariy qarashlar yapon tilshunosligida aspekt tushunchasining evolyutsiyasiga zamin yaratdi. Kindaiichi va Suzuki Shigeyuki singari tadqiqotchilar esa aspektual klassifikatsiya, leksik va grammatik aspekt o'rtasidagi farqlar, shuningdek, ko'makchi fe'llarning aspektual funksiyalari haqida muhim ilmiy qarashlarni ilgari surdilar. Ayniqsa, Yoshikava Taketokining (1973) har bir yordamchi fe'lni chuqur tahlil qilgan fundamental tadqiqoti keyingi izlanishlar uchun asosiy manba sifatida e'tirof etiladi. XXI asrga kelib, ko'makchi fe'llarning o'rganilishi morfosintaktik tahlildan tashqari, semantik, pragmatik va kognitiv yondashuvlar bilan boyitilmoqda. Bu holat yapon tilidagi aspekt kategoriyasining grammatik tizim sifatida mukammal shakllanishi va uning zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Comrie B. Aspect: An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems. – Cambridge: Cambridge University Press, 1976. – 145 p.

⁸ 山田敏弘著(2004)『日本語のベネファクティブ-「てやる」「てくれる」「てもらう」の文法-』博士論文381p

⁹ 近藤 優美子(2022) 補助動詞“しまう”の研究 —本動詞との連続性に着目して—博士論文 大阪大学

¹⁰ 張 又 華(2017) 認知言語学の観点から見た日本語の文法化現象—「テシマウ」形式を中心に— 博士論文156p.

¹¹ Masami Murata (2003) Syntax and semantics of existentials ar-u and i-ru in Japanese. Doctoral dissertation. 351p

¹² 住田哲郎 (2011) 「移動動詞「来る」の文法化とヴォイス機能」博士論文 神戸大学. 202 p

¹³ 李, 廷玉 (2010)現代日本語のテ形補助動詞研究. 博士論文

¹⁴ 施 葉飛 (2022)日本語間接関与構文の語用論的研究. 博士論文152 p.

¹⁵ 當山奈那 (2015) 『沖縄首里方言におけるヴォイスと利益性の記述文法研究』博士論文 琉球大学 177 p.

2. Taoka Ch. Aspect and Argument Structure in Japanese: A Thesis Submitted to the University of Manchester for the Degree of Doctor of Philosophy. – Manchester, 2001. – 265 p.
3. Masami Murata (2003) Syntax and semantics of existentials ar-u and i-ru in Japanese. Doctoral dissertation. 351p
4. 山田敏弘著(2004) 『日本語のベネファクティブ-「てやる」「てくれる」「てもらう」の文法-』 博士論文381p
5. 近藤 優美子(2022) 補助動詞“しまう”の研究 —本動詞との連続性に着目して—博士論文 大阪大学
6. 張 又 華(2017) 認知言語学の観点から見た日本語の文法化現象—「テシマウ」形式を中心に— 博士論文156p.
7. 住田哲郎 (2011) 「移動動詞「来る」の文法化とヴォイス機能」 博士論文 神戸大学. 202 p
8. 李, 廷玉 (2010) 現代日本語のテ形補助動詞研究. 博士論文
9. 施 葉飛 (2022) 日本語間接関与構文の語用論的研究. 博士論文152 p.
10. 當山奈那 (2015) 『沖縄首里方言におけるヴォイスと利益性の記述文法研究』 博士論文 琉球大学 177 p.
11. 鈴木重幸(1976)日本語の動詞のすがた (アスペクト) について———スルの形と～シテイルの形」. 金田一春彦 (編) 『日本語動詞のアスペクト』 . 東京: むぎ書房. pp 63-83.
12. 高橋太郎 (1969) 「すがたともくろみ」. 金田一春彦 (編) 『日本語動詞のアスペクト』 . 東京: むぎ書房. pp. 117-155.
13. 吉川 武時「現代日本語動詞のアスペクトの研究」. 金田一春彦 (編) 『日本語動詞のアスペクト』 . 東京: むぎ書房. pp. 155-329.
14. 高橋太郎 (1969) 「解説 日本語動詞のアスペクト研究小史」. 金田一春彦 (編) 『日本語動詞のアスペクト』 . 東京: むぎ書房. pp. 329-356.